

SOTSIOLOGIYADA MA'LUMOTLARNI TO'PLASH METODI VA USULLARI

Hasanova Chinnigul Otabek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Anotatsiya: Ushbu ishda sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ma'lumotlarni to'plash metodlari, ularning mazmuni, afzalliklari va qo'llanish sohalari tahlil qilinadi. Sotsiologiyada asosiy empirik metodlar – kuzatish, so'rov, intervyu, anketalashtirish, tajriba va hujjatlarni tahlil qilish usullari hisoblanadi. Har bir metodning ilmiy tadqiqotdagi o'рни, u orqali olinadigan ma'lumotlarning ishonchliligi hamda qo'llash sharoitlari yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy sotsiologiyada keng qo'llanilayotgan onlayn so'rovlar, big data, digital kuzatuv kabi yangi texnologik yondashuvlar haqida ham ma'lumot beriladi. Tadqiqot sotsiologik jarayonlarni chuqurroq anglash va obyektiv ma'lumotlar olishda metodlarning to'g'ri tanlanishi muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Sotsiologiya, metod, empirik tadqiqot, ma'lumotlarni to'plash, tadqiqot metodlari, so'rov, anketalash, intervyu, kuzatish.

Kirish: Sotsiologiya ijtimoiy hayotni o'rganish va tushunishga qaratilgan ilmiy soha hisoblanadi. Ushbu sohaga oid tadqiqotlar samaradorligi ko'pincha to'plangan ma'lumotlarning sifati va to'g'riligiga bog'liq. Shu sababli sotsiologik ma'lumotlarni to'plashda ishlatiladigan metodlar alohida ahamiyatga ega. Metod va metodologiya tushunchasi ilmiy bilishning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, tegishli soha olimlarining tadqiqot faoliyatini metodologik jihatdan tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ushbu ikki atamaning mohiyati, o'zaro munosabati va ilmiy bilishda o'рни sotsiologik perspektivada ochib beriladi. Chunki fanning amaliyligi metod orqali nomoyon bo'ladi va metod fanning yutuqlaridan amaliy foydalanishlik uchun xizmat qiladi. Quyida ushbu metodlarning asosiy turlari, ularning afzalliklari, kamchiliklari va qachon ishlatilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Metod ilmiy jarayonlarda tizimli va izchil tarzda qo'llanilib, maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonaviy ilmiy izlanishlarda “metod” va “metodologiya” tushunchalari o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar har qanday ilmiy tadqiqotning asosi hisoblanadi. Ularni to'g'ri tushunish va qo'llash natijada tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Har bir metod o'zida bilib olingan qonuniyatlar,



xususiyatlar va aloqalarni mujassamlashtirgan bo'lib, uning obyektiv tomonini tashkil qiladilar. Ular asosida shakllanga usul, vosita va qoidalar obyekt tomon deb ataladi. Tomonlarni obyektiv va subyektivlikka ajratish metodning mohiyati va strukturasini tushunish uchun juda muhimdir. Obyektiv tomon shunday nazariy asoslarni o'zida ifoda etadiki, ular fan tomonidan hozirda ishlab chiqilgan. Sotsiologiyada fanning to'liq yaxlit obyektini qamrab oladigan metod ishlab chiqilgan emas, vaholanki shunday metodni yaratish harakatlari boshlanib ketgan. O'z vaqtida pozitiv, psixoanalitik, naturalistik, empirik va boshqa yo'nalishlar sotsiologiyada umumiylikni davogarlik qiladilar. Ammo vaqt o'tishi bilan ularni statuslari sotsiologiyada tadqiqotlarni ma'lum bir sohasi deb e'tirof etildi.

“Metodologiya” (yunoncha “metodos” — yo'l, “logos” — ta'limot) — bu metodlar tizimi yoki ular haqidagi ta'limotdir. Metodologiya – bu metodlarni o'rganish, ularning amaliyotdagi qo'llanilishi va rivojlanishini tahlil qiluvchi fan. Metodologiya nafaqat metodlar yig'indisi, balki ilmiy bilish jarayonining nazariy asoslarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, P.A. Sorokin metodologiyani “ilmiy bilish usullari va ularning tamoyillarini o'rganish” deb izohlaydi. Metodologiya ko'pincha falsafa va ilmiy nazariya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ma'lum bir yo'nalishda ishlatiladigan metodlarning tizimli yondashuvini ifodalaydi. Metod — bu tadqiqotni amalga oshirishning amaliy vositasi, metodologiya esa tadqiqotning nazariy asoslarini tahlil qiluvchi fan hisoblanadi. Shu sababli, metodologiya ko'proq nazariy, metod esa amaliy xususiyatga ega.

Metod — intervyu o'tkazish, statistik tahlil qilishdan iborat bo'lsa, metodologiya – intervyu va statistik tahlil natijalarini tushuntirish tamoyillaridan iborat bo'ladi. Metod va metodologiya tushunchalarini to'g'ri tushunish va amaliyotda samarali qo'llash har qanday ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi. Metodlar tadqiqot jarayonini bosqichma-bosqich olib borishni ta'minlasa, metodologiya esa ushbu jarayonni umumiy tarzda nazariy asoslaydi. Shunday qilib, ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyati metod va metodologiyaning birgalikda qo'llanilishiga bog'liq.

Metod va metodologiya tushunchalarini to'g'ri tushunish va amaliyotda samarali qo'llash har qanday ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi. Metodlar tadqiqot jarayonini bosqichma-bosqich olib borishni ta'minlasa, metodologiya esa ushbu jarayonni umumiy tarzda nazariy asoslaydi. Shunday qilib, ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyati metod va metodologiyaning birgalikda qo'llanilishiga bog'liq. Metod va metodologiya ilm-fan va amaliyotda bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Ular ilmiy



tadqiqotlarda muhim o‘rin tutib, maqsadga erishish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Metod va metodologiya tushunchalari ilmiy bilishning fundamental kategoriyalari bo‘lib, tadqiqotchilarga bilimni sistemali va asosli ravishda o‘rganishga imkon beradi. Klassik sotsiologlarning metodologik qarashlar ilmiy bilishning metodologik asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ilmiy metodologiyalarning asosiy tamoyillarini chuqurroq o‘rganish, turli metodlarni integratsiya qilish va yangi empirik tadqiqotlarni o‘tkazish, ijtimoiy ilm-fanning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Shuningdek, evolyusion yondashuvlar va interdisipliner yondashuvlar orqali yanada kengroq tushuncha va natijalarga erishish mumkin.

Kuzatish — tadqiqotchi ijtimoiy hodisalarni tabiiy sharoitda bevosita kuzatish orqali ma’lumot to‘playdi. Kuzatish ishtirokchi (tadqiqotchi jarayonda qatnashadi) va ishtirokchi bo‘lmagan turlarga bo‘linadi.

Intervyu — tadqiqotchi va respondentning og‘zaki muloqoti asosida ma’lumot to‘plash metodi. U ochiq, yarim tuzilgan yoki tuzilgan shakllarda bo‘lishi mumkin.

Anketalash – respondentlarga yozma savollar berish orqali ma’lumot yig‘ish usulidir. U ommaviy tadqiqotlarda, katta auditoriyalarni qamrab olishda juda qulay.

Xulosa: Sotsiologiyada ma’lumotlarni to‘plash metodlarining xilma-xilligi tadqiqotchi oldida keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir metodning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari bo‘lgani sababli, tadqiqot maqsadi, obyekti hamda sharoitiga qarab ularni to‘g‘ri tanlash muhim hisoblanadi. Ko‘pincha ishonchli natijaga erishish uchun bir nechta metod kompleks qo‘llanadi, bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдукаримов Б. Sotsiologiya: Nazariya va amaliyot. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. Jo‘rayev R. Sotsiologik tadqiqot metodlari. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
3. Karimova N. Zamonaviy sotsiologik usullar. — Toshkent: Fan, 2018.

